

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL DARS MASHG'ULOTINI TASHKIL ETISH

Jovliyeva Dildora
JDPU magistranti
jovliyevadildora1220@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida "Uzunlik o'lchov birliklari" mavzusini interfaol metodlar bilan tashkil qilish va u orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: metr, detsimetr, santimetr, millimetr, kompetensiya

Abstract: This article is devoted to the organization of the topic "Units of length" in elementary mathematics classes with interactive methods and through it to the improving creative ability of school children .

Key words: metre, decimetre, centimetre, millimetre, competence.

Matematika fanidan 2-sinflarda "Uzunlik o'lchov birliklari: metr, detsimetr va santimetr" mavzusini o'rganishga innovatsion yondashuvni amalga oshirish.

Hozirda dunyo bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda va ushbu yo'nalishlar bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Bu borada Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida tub islohotlar olib borilmoqda va ularning mazmun-mohiyatini kelajagimiz vorislari bo'lmish yosh avlodni intellektual salohiyatli, ma'naviy yetuk, jismonan baquvvat, innovatsion rivojlangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishlar tashkil etadi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish muammosini hal qilish davlat siyosati darajasidagi masala sifatida qaralayotganligi bu katta imkoniyat. Bunda birgina O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4917-son Farmonida ayni qaralayotgan muammo yechimini hal qilishga keng imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-iyundagi "Yoshlar-kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida

“Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir”, deb alohida belgilangan. [1] Bu hujjat ham kelajagimiz vorislari bo‘lmish yoshlarni ma‘naviy yetuk, intellektual salohiyatli va innovatsion rivojlangan barkamol shaxs bo‘lib yetishishidagi muhim jihatlardan biridir.

Matematika faniga qo‘yilgan talablar: O‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta‘lim olishni davom ettirish uchun matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish.

Bilimga qo‘yilgan talablar: O‘quvchilar ongida santimetr(sm), metr (m), detsimetr (dm) uzunlik o‘lchov birliklari haqida tasavvur hosil qilish.

Ko‘nikmaga qo‘yilgan talablar: O‘quvchilarga misol va masala yechishda sonli ifodalar, asosiy miqdorlar ,xususan uzunlik o‘lchov birliklaridan foydalanishni o‘rgatish.

Malakaga qo‘yilgan talablar: O‘quvchilarni misollarni yechishda sonlar va uzunlik o‘lchov birliklaridan foydalanib ifodaning qiymatini topishga odatlantirish.

Mavzuni o‘rganishga oid bosh va asosiy maqsadlar:

Bosh maqsad: Asosiy miqdorlardan, uzunlik o‘lchov birligi haqida tushuncha hosil qilish va unga oid misol va masalalar yechishga o‘rgatish.

Ta‘limiy: O‘quvchilarga sm, dm va m haqida bilim berish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarni mehnatsevarlik va tartib-intizomlilik ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarni og‘zaki va yozma hisoblash malakalarini o‘stirish.

O‘quv jarayoniga oid kompetensiya:

Tayanch kompetensiya 1: matematikaga oid atamalarni to‘g‘ri talaffuz etish; o‘z fikrini aniq ifodalay olish;

Tayanch kompetensiya 3: uzunlik o'lchov birliklariga oid masalalar yechish orqali ijtimoiy hayotdagi vaziyatlarga nisbatan o'zining munosabatini bildira olish;

Fanga oid kompetensiya 1: sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, to'g'ri va teskari tartibda sanay oladi;

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: mavzuga oid ma'lumotlarni anglab etadi, ma'lumotlarni muhimligiga qarab bosqichma-bosqich undan foydalana olish kerak.

Dars turi: Yangi bilim berish.

Dars usuli: Savol javob, muammoli vaziyat , Besh burchak, Quvnoq shakllar.

Dars jihozi: Mavzuga oid ko'rgazma, darslik ,tarqatmalar hamda rag'bat kartochkalari.

Darsning xronologik xaritasi

№	Darsning borishi	Ajratilgan vaqt min
1	Tashkiliy qism	5
2	O'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash	25
3	Yangi mavzu bayoni	30
4	Yangi mavzuni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirganlik darajasini tekshirish	10
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	5
6	Darsni yakunlash va uyga vazifa berish	5

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish, davomatni aniqlash, tozalikni tekshirish;
- b) ma'naviyat daqiqasi "Tejamkorlik" mavzusida suhbat;
- d) ingliz tili daqiqasi

Darsning oltin qoidalari bilan tanishtiriladi.

Darsimiz yanada qiziqarli va bahs-munozaraga boy bo'lishi uchun sinf o'quvchilarini "Sirli sandiq" usuli orqali 3 guruhga bo'lib olamiz.

1-guruh "Bilimlilar"; 2-guruh "Quvnoqlar"; 3-guruh "Zukkolar";

Guruhlarning har birini shu tartibda nomlab olamiz .

2. O'tgan mavzuni so'rash va mustahkamlash.

O'qituvchi: Kimda-kim bizning tezkor savollarga javob beradi?Qani bolajonlar bir o'zingizni sinab , siz ham javob berib ko'ring-chi.

Kechadan keyin nima keladi? (Bugun);

Tezyurar poezdning nomi? (Afrosiyob);

Tabobat ilmi asoschisi ... (Abu Ali Ibn Sino);

Bilim manbayi ... (Kitob);

Milliy boyligimiz- ... (Paxta);

Eng ayyor hayvon qaysi? (Tulki);

Oltindan qimmat narsa? (Vaqt);

Bir sutka necha soat? (24 soat);

Eng kichik ikki xonali son ... (10);

Nol raqamini kashf qilgan olim kim? (Al-Xorazmiy)

(YUqoridagi o'yindan dam olish daqiqasida foydalanish mumkin.) To'g'ri javob bergan o'quvchilarga rag'bat kartochkasi beriladi.

1. YAngi mavzu bayoni: Darslik bilan ishlash. YAngi mavzuni tushuntirish. Dastlab o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirish jarayonida o'quvchilarga o'lchov birliklari haqida ma'lumot beradi va misollar keltiradi. So'ng esa metrning turlari , ya'ni tasmasimon metr, qurilishda ishlatiladigan metr va chizg'ichlarni ko'rsatadi. Bir-biridan farqi hamda ularning vazifasi, asosan kimlar va qayerda ishlatishini tushuntirib o'tadi. Avvalo o'lchashni o'rgatish jarayonida matematika daftarining ikkita katagini

bir santimetr deb olamiz deb o'rgatadi. Katta narsalarni o'lchashda standart uzunlik birligi – metrdan foydalaniladi deb aytib o'tadi.

1 metr = 10 detsimetr = 100 santimetr

Belgilanishi: m = dm = sm

Men uzunlik o'lchov birliklari mavzusini ertak asosida tushuntirilsa samarasi yuqoriroq bo'ladi deb o'ylayman. Ba'zi o'quvchilar borki qaysi katta ekanligini adashtirib qo'yishadi. Ertak metodi orqali esa oila boshlig'i, rafiqasi va farzandlari kabi yuqoridan kamayish tartibi orqali kelamiz.

“Uzunlik o'lchov birliklari oilasi”

Qadimda uzunlik o'lchov birliklari degan oila yashagan ekan. Ular oilada 4 kishi ota-onasi va bir o'g'il, bir qizi bo'lgan ekan. Oila boshlig'ining ismi metrjon ekan. Metrjon oilasini juda tartib intizomga bilan boshqarar ekan. Uning rafiqasi ham bo'lib uning ismi detsimetrxon ekan. Detsimetrxon o'z aqli va donoligi bilan hamma joyda e'zozda ekan. Ularning ikki farzandi bo'lib: bosh farzandi o'g'il, ismi esa santimetrboy ekan. U doim o'z singlisiga va onasiga ko'maklashar ekan. Bu oilada eng erka va eng kenja farzand bo'lib uning ismi millimetrxon ekan. Oila a'zolari uni erkalab millimetrcha deb chaqirishar ekan. Mana shunday qilib chiroyli tartibda, slayd orqali tushuntiriladi.

Bu metoddan foydalanilganda o'quvchilar yodida qolishi osonroq bo'ladi. Eslab olishlari ham mumkin, misol uchun santimetr bilan detsimetrni farqini bilmay qoldi deylik shunda birdaniga ertak xayoliga keladi va biladiki santimetr o'g'li edi. Detsimetr esa onasi, demak detsimetr katta ekan deb darhol eslashiga yordam beradi.

1 – misol.

Uzunligi 10 sm bo'lgan o'lchov yordamida parta uzunligini, doska uzunligini va xonaning uzunligini o'lchang. Ushbu o'lchov bilan qanday uzunlikni o'lchash noqulay?

Javob: xonaning uzunligini o'lchash noqulay.

2 - misol. Detsimetrlarda, santimetrlarda va metrlarda ifodalang:

3 m = 30 dm 2 m = 200 sm 400 sm = 4 m

$$5 \text{ m} = 50 \text{ dm} \quad 6 \text{ m} = 600 \text{ sm} \quad 700 \text{ sm} = 7 \text{ m}$$

$$8 \text{ m} = 80 \text{ dm} \quad 9 \text{ m} = 900 \text{ sm} \quad 300 \text{ sm} = 3 \text{ m}$$

Bunda o'quvchilar ishini nazorat qilinadi, qiynalgan o'quvchilarga yordam beriladi. Bu misolni yechish orqali o'quvchilarda bir uzunlik o'lchov birligidan ikkinchisiga qiynalmasdan o'ta olish ko'nikmasi shakllanadi.

3-misol. Taqqoslang:

$$\begin{array}{llll} 70 \text{ sm} & 70 \text{ dm} & 6\text{m} & 6 \text{ dm} & 30 \text{ dm} & 300 \text{ sm} \\ 200 \text{ sm} & 800 \text{ sm} & 800 \text{ m} & 90 \text{ dm} & 500 \text{ sm} \end{array}$$

4-masala : Xivadagi Kaltaminor minorasining balandligi 29m , ammo quruvchilarning rejasiga ko'ra, uning balandligi 70 m bo'lishi kerak edi. Minoraning necha metri qurilmagan?

Javobingizni sm larda ifodalang. Ye: $70-29=41$ Javob: 4100 sm qurilmagan.

5-masala. Mustaqillik maydonidagi favvoralar to'g'ri to'rtburchak shaklida. Ulardan birining uzunligi 88 m, kengligi 34 m qisqa. Ushbu favvora atrofida yoritkich o'rnatish uchun necha metr nurli tasma kerak bo'ladi?

6-misol. Binolarning balandligi metrlarda o'lchanadi. Tenglamalarni yeching va ushbu minoralarning balandligini bilib oling.

Toshkent teleminorasi Buxoroning Shuxov minorasi

$$900-(x+518)=7 \quad 287+(719-y)=966$$

7-masala. PIZA minorasining tepasi to'g'ri holatdan 4 m 80 sm masofaga og'gan. Bu detsimetrlarda qancha bo'ladi.

(og'zaki bajarish uchun)

8-misol. Ifodalarni hisoblang, ularning qiymatlarini o'sish tartibida qo'yib chiqing va arxitektorni qadimda qanday atashganini bilib oling.

$$\text{O} \quad 356+328= \quad \text{R} \quad 612+158= \quad \text{M} \quad 975-867=$$

$$\text{E} \quad 854-658= \quad ' \quad 876-549= \quad \text{M} \quad 415+115=$$

Yangi mavzuni mustahkamlash.

"BBB" metodi bu B-B-B sxemasi bo'yicha o'quvchilar bilan yangi mavzuni mustahkamlash uchun ijodiy ishlash metodi.

O'quvchilar guruhlarga bo'linishadi. O'tilayotgan mavzu yoki o'lchov birliklari yuzasidan har bir guruh o'zaro hamkorlikda «Taxminan nimani bilamiz?» ustunini toldirishadi. Doskadagi birinchi ustunga esa barcha guruhlarning javoblari jamlanadi. Berilgan javoblar toifalar bo'yicha guruhlanadi.

Keyin har bir guruh a'zolari o'zaro kelishilgan holda «Bilishni xohlayman» ustuniga mavzu yuzasidan o'zini qiziqtirgan savollarni yozib chiqishadi. Doskadagi ikkinchi ustunga esa barcha guruhlarning savollari jamlanadi. Shundan so'ng talabalar mavzu yuzasidan matn (ma'ruza) bilan to'liq tanishib chiqadilar va jadvalning ikkinchi ustuniga qaytib, o'zlari bilishni xohlagan savollardan qaysilariga javob topganligini belgilab chiqishadi. Savollarga topilgan javoblar uchinchi «Bilib oldik» ustuniga yoziladi. Talabalarni qiziqtirgan qaysidir savolga javob chiqmay qolgan bo'lsa, uni o'qituvchi to'ldirishi yoki uyga vazifa sifatida bilib kelishni topshirishi mumkin.

Bilamiz	Bilishni xohlaymiz	Bilib oldim

5. Baholash. Dars yakunida guruhlarning umumiy ballari e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

6. Uyga vazifa. 9-10– misol va masala.

9-misol. Ifodalang:

Detsimetrlarda: 9m, 60 sm, 2m, 70 sm;

Santimetrlarda: 7dm, 4m, 3 dm, 2 m;

Metrlarda: 500 sm, 30 dm, 600 sm, 80 dm;

10-masala. Birinchi ko'p qavatli uyda 246 xonadon, ikkinchisida birinчисiga nisbatan 58 ta kam, uchinчисida esa 42 ta ko'p xonadon bor. Bu uyda nechta xonadon bor?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-iyundagi ““Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturi to'g'risida”gi Farmoni
2. To'raqulov X.A, To'raqulova I.X, Oslanova K.S “Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-biluv faoliyatini yuksaltirishning innovatsion texnologiyalari” Toshkent-2020
3. S. Burxonov, O'. Xudoyorov, Q. Norqulova «Sharq» Nashriyot-Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2017
4. lex.uz
5. Ziyonet.uz